

## O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATI VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Suyunova Marjona Akbar qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ona tili o'qitishda o'quvchilaming nutqiy kompetensiyasi tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, o'z fikri mustaqil ifoda qilish, matn yaratishda ijodiy yondashishni rivojlantirish hamda nutq madaniyatini egallash bo'yicha tilshunos va metodist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o'quv topshirig'i, matn ustida ishlash.*

### **Kirish.**

Kompetensiya - u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. "compete" - erishyapman, munosibman, loyiqlaman) - fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir[3].

Kompetensiya tushunchasining ta'lim mazmuniga tatbiq etilishi zamirida o'qitish tizimiga nisbatan yangicha yondashuv, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi yotadi, albatta. Hozirgi zamon talabiga monand tarzda endilikda o'quvchilarga faqatgina ilmiy-nazariy bilimlar berish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil mushohada eta oladigan, egallagan bilimlarini kundalik hayotga ham ongli ravishda tatbiq qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish maqsadida "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarini har bir darsning asosiy maqsadi mazmuniga singdirishga urg'u berila boshlandi.

Kommunikativ kompetentsiya - bu murakkab muloqot ko'nikmalari va qobiliyatlariga ega bo'lish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat ko'nikmalarni shakllantirish, muloqotda madaniy me'yorlar va cheklovlarini bilish, urf-odatlar, an'analar, muloqot sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi xulq-atvorga rioya qilish. , milliy, sinfiy mentalitetga xos bo'lgan va ushbu kasb doirasida ifodalangan kommunikativ vositalarga yo'naltirilganlik. Kommunikativ kompetentsiya - bu ishbilarmonlik aloqasi sohasidagi aloqa qobiliyatları, bilimlari, ko'nikmalari, hissiy va ijtimoiy tajribasini o'z ichiga olgan shaxsning umumlashtiruvchi kommunikativ xususiyati. Kommunikativ kompetentsiya quyidagi qobiliyatlardan iborat: Siz muloqot qiladigan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini bering. Kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini ijtimoiy va psixologik jihatdan dasturlash; Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish. Kommunikativ kompetentsiya - bu umumiyl

madaniyatni va uning kasbiy faoliyatdagi o'ziga xos ko'rinishlarini sintez qiladigan yaxlit sifatdir. Kommunikativ kompetentsiyaning shartlaridan biri ma'lum qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilardir: Eng umumiyl qoida - bu qoida bo'lib, unga ko'ra, agar u o'zi tomonidan tushunarsiz yoki to'liq tushunilmagan bo'lsa, fikr bildirishni boshlay olmaydi.

"Tushunishga doimo tayyor bo'lish" qoidasi. Ko'p sonli semantik va shaxsiy to'siqlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha xabarlarni to'liq va noto'g'ri tushunishga olib keladi.

O'ziga xoslik qoidasi. Noaniq, noaniq, noaniq iboralar va so'zlardan qochish kerak, notanish yoki juda ixtisoslashgan atamalarni keraksiz ishlatmaslik kerak.

Og'zaki bo'limgan signallarni boshqarish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabaringiz mazmunini nazorat qilishning o'zi etarli emas. Shuningdek, uning tashqi "hamrohligi" - yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya, durusga taalluqli bo'lgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak. "O'z noto'g'ri" qoidasi. Muloqotda har doim shaxsiy nuqtai nazar noto'g'ri bo'lishi mumkinligini taxmin qilish kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.

"Makon va vaqt" qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi, agar u o'z vaqtida bo'lsa va uni amalga oshirish uchun eng mos vaziyat tanlansa, keskin ortadi.

Ochiqlik qoidasi yangi ochilgan holatlar ta'sirida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyorlikni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.

Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali muloqotning asosiy shartlaridan biridir. Qayta aloqa qoidasi. Aynan shu qoida pirovardida muloqot jarayonining asosiy maqsadi - o'zaro tushunishga erishishni ta'minlaydi.

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1. tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

2. gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);

3. o'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish;

4. yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish)

O'quvchilar nutqiy kompetensiyanining shakllanganligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- o'qituvchi nutqini, video va audiomatnlarni (multimedia ilovalari) va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

- rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

- mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga riosa qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi;
- so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini, bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi;
- x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi;
- bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;
- mash'al, ma'qul, ta'lif, jur'at, ta'zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi;
- lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmi diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o'ziga xos o'rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig'ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g'oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me'yorlariga asoslanib so'zlab berish hamda yozish, o'z nutqini og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"<sup>1</sup>, -deb e'tirof qilinishi ona tili o'qitish metodikasi oldiga ta'lif jarayonining sub'ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma'lum fikrini ma'noli ifodalab, aniq, sermazmun so'zlab yetkazadigan va diqqat bilan o'qish qobiliyatlariga ega bo'lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma'lumot va axborotlarni o'qib kerakli xulosani chiqaradigan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo'yadi.

Shuningdek, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida: "Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qaerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan muomala-muloqot sirlarini o'rgatadi; sharqona odob-andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi"<sup>2</sup>, - deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa - bu o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko'nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o'stirish va turli nutqiy vaziyatlarda purma'no, o'rinli so'zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir. Professor Sh.Yusupovning ta'kidlashicha, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha "Sharhlash

usuli"ni qo'llashdan turli maqsadlar ko'zlanishi nazarda tutiladi. 1.Sharhlash ona tili bo'yicha o'tilgan nazariy ma'lumotlarni idrok qilishga yordam beradi. 2.Sharhlash nazariy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashni bildiradi. 3.Og'zaki nutqni o'stirishga yordam beradi. 4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi. 5.Butun dars jarayonida o'quvchilarda nazariy ma'lumotlar ta'kidlanadi"3. Metodist olima to'g'ri qayd etganidek, ona tili darslarida o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni sharhlashi natijasida to'g'ri so'zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me'yorlariga amal qilib to'g'ri yozishdagi ko'nikma va malakalari, dars davomida o'rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o'tadi. G'.Hamrayevning "Umumiyl o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikmasi bir xil bo'lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma'noda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi"4 deyiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosan ona tili o'qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog'liq. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o'qish, , yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o'qitishda o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilardagi hosil bo'lgan nutqiy ko'nikmalarlarning rivojlanish ko'rsatkichini nazorat qilish va shu bilan bir qatorda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarining o'sish darajalarining "oqsayotganini" aniqlash, interaktiv metodlardan foydalanish va bu borada ularning yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari ustida muntazam ishlab bu kemtik o'rinnlarni o'z vaqtida tuzatishdir. O'quvchilarga so'zlarning imlosi bo'yicha imlo lug'at bilan ishlashni, ko'chirib yozish mashqlarini bajarishda o'rganib, eslab qolishni uqtirish, so'zlarning ma'noviy strukturasida izohli lug'atlar bilan ishlash, omonim va sinonim lug'atlar bilan ishlashni o'rgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o'qish va yozish mashqlariga alohida urg'u bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon o'qituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo'shimcha ilmiy adabiyotlar ishlashni, zamонавиy va ilg'or metodlardan foydalanishni talab qiladi. M.Mahmudovning fikricha, "yoshlarning fikrlashi, tafakkurini o'stirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish" o'qitishning jamiyat rivojidagi bajarilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biri sanalishi e'tirof etiladi5. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini o'stirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ayniqsa jamiyatda tub burilishlar, o'zgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. "O'qituvchining o'qish namunasiga ko'ra o'quvchilar to'g'ri, ifodali o'qishni o'rganadi. Darsda matnni o'qib berish uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi,

mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o'rirlari qanday o'qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O'qituvchi ayrim tovush, bo'g'in, so'zlarni qanday o'qish kerakligini izohlagach, o'quvchilar matnni navbat bilan o'qishadi. O'qituvchi ularni kuzatib, to'g'rilib boradi"<sup>6</sup>. O'qituvchi so'zni risoladagidek o'qishni, so'zlarni o'qish vaqtida intonatsiya va urg'uga e'tibor berishni, jumlalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni o'rgatsa, o'quvchilarning o'qish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga o'zgaradi.

Xulosa, yurt taraqqiyoti yoshlarning kelgusida qanday shaxs bo'lib kamol topishiga uzviy bog'liqdir. Farzandlarimizning kelajagi poydevori bo'lmiss boshlang'ich ta'lif tizimini yanada isloh qilish esa bu boradagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiyl o'rta ta'lif maktablari zimmasiga ta'lif-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan [1]. Bu jarayonni amalga oshirishda esa, avvalo o'qituvchi o'zining egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega bo'lmoq'i lozim. Shundagina u pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil eta oladi. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Bu kabi fazilatlari orqali pedagog yuksak ma'naviyatli, teran fikrga ega yetuk shaxslarni kamol toptirishi shubhasizdir. Demak, ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiyl kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

## REFERENCES:

1. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lifning asosiy jihatlari."Academic Research in Educational Sciences", Volume 3/ISSUE 1/2022.
2. Sattarova N.U. The emergence of the competence approach in the educational system and its importance today. "Science and innovation", 2023
3. <https://cyberleninka.ru/article/>
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Узбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Узбекистон.2016. - 146